



TASDIQLAYMAN

“Sharq’unko’mir”AJ

Bosh direktori

M.A.Azizkulov

2026 yil

**“Sharq’unko’mir”AJda 2026-yil I-choragi davomida korrupsiyaga qarshi
kurashish sohasida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida**

HISOBOT

“Sharq’unko’mir” aksiyadorlik jamiyatida 2026-yil I-choragi davomida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshiradigan chora-tadbirlar dasturida belgilangan vazifalar doirasida tegishli tadbirlar amalga oshirildi.

1. Yo‘l xaritasida jami 17 tadbir belgilangan bo‘lib, Respublikada amalga oshirilayotgan isloxoatlardan kelib chiqib “Sharq’unko’mir”AJda korrupsiyaga qarshi kurashning qonuniy asoslarini yanada takomillashtirish, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash choralari ko‘rish va korrupsiya xavf-xatari yuqori bo‘lgan yo‘nalishlar aniqlandi, jamiyat xodimlarini korrupsiyaga qarshi immunitetni shakllantirish maqsadida o‘quv kurslarini tashkil etilib ishchi-xodimlar bosqichma-bosqich o‘qitilmoqda, tizimda korrupsiyaviy holatlarini oldini olish, shuningdek ish samaradorligini oshirish maqsadida rotasiya usulidan foydalanish belgilab olindi. Yil davomida xodimlar orasida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha so‘rovnomalar o‘tkazish tizimini joriy etish 2-chorakdan amalga oshiriladi. Rasmiy veb-sayt va telegram kanallarda mavjud vakant lavozimlar va ularga qo‘yilgan talablarni ochiq e‘lon qilib borilmoqda. Faoliyatda korrupsiyaga qarshi kurash mavzusida huquq-tartibot idoralari va keng jamoatchilik vakillari ishtirokida uchrashuvlar, davra suhbatlari va boshqa profilaktik tadbirlar o‘tkazish yil davomida amalga oshirilishi rejalashtirilgan. Korrupsiyaga qarshi profilaktik tadbirlar sifatida korrupsiyaning salbiy illatlarini aks ettiruvchi video, bosma va elektron kurinishda targ‘ibot materiallari tayyorlanib, rasmiy veb-sayt va telegram kanallarda joylashtirib kelinmoqda. «Korrupsiyaga qarshi kurash» ruknini tegishli ma‘lumotlar va axborotlar bilan doimiy to‘ldirib borish, Davlat xaridlari, xarajatlar va boshqa ma‘lumotlarni “Sharq’unko’mir”AJning rasmiy veb-saytlariga joylashtirilmoqda.

2. 2024 yil 14-noyabr sanasi bilan 288-buyruq asosida “Sharq’unko’mir”AJda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ichki me‘yoriy hujjatlar, tartib qoidalar, ya‘ni “Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati”, “Manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish to‘g‘risidagi nizom”, “Odob-axloq kodeksi”, “Odob-axloq komissiyasi to‘g‘risidagi nizom”, “Xodimlarni etika va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o‘qitishni tashkil etish bo‘yicha yo‘riqnoma”, “Ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo‘yicha yo‘riqnoma”, “Kontragentlarni tekshirishga oid yo‘riqnoma”, “Tuzilayotgan shartnomalarni kelishish, imzolash va ijro etish siyosati”, “Davlat

xaridlari ustidan nazoratni tashkil etish bo'yicha uslubiy qo'llanma", "Korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish uslubiyoti", "Korrupsiyaviy hatti-harakatlari va odob-axloq qoidalarini buzish holatlari ustidan xizmat tekshiruvlari o'tkazish bo'yicha reglament", "Aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uslubiyoti", "Korrupsiyaga qarshi kurash tizimining holati to'g'risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo'yicha nizom", "Sovg'alar berish va olish, biznes-tadbirlarni tashkil etish, vakillik xarajatlarini amalga oshirish bo'yicha siyosati", "Xayriya va homiylik faoliyatini amalga oshirish siyosati" kabi sohaga oid ichki me'yoriy xujjatlar qabul qilingan. Barcha xodimlar tanishtirilib va tushuntirish ishlari olib borilmoqda.

2026 yil 19-mart sanasida 65-sonli buyruq bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi PF-71-son Farmoni bilan tasdiqlangan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha milliy kengashining 2025-yil 5-martda o'tkazilgan kengaytirilgan yig'ilishida belgilangan topshiriqlar ijrosini ta'minlash bo'yicha amaliy chora-tadbirlar dasturining 24.2-bandi hamda O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining 2026-yil 14-martdagi 03-09/2378-son topshirig'i ijrosini ta'minlash maqsadida Asosiy vositalar xaridlari ustidan nazoratni kuchaytirish to'g'risida buyruq imzolanib jamiyat xarid komissiyasiga tanishtirildi.

2024 yil 14-noyabr sanasi 285-buyruq bilan "Sharg'unko'mir" AJda korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshgi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarni rahbatlantirish tartibi to'g'risida nizom tasdiqlandi va ishchi xodimlarga nizom tartibi to'g'risida ma'lumot berilgan bo'lim yangi ishga joylashgan xodimlarga etkazilmoqda.

3. "Sharg'unko'mir" AJda korrupsion e-antikor platformasida 30ta funksiya baholandi. Ulardan xavf-xatarlar xaritasi ishlab chiqilib unda "Yuqori" darajadagi xavflarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar dasturiga asosan korrupsiogen omillarni minimallashtirish bo'yicha ishlar olib borilmoqda.

e-antikor platformasida baholangan 30 ta funksiyaning korrupsiogen xavf-xatarlar "Yuqori", "O'rta" va "Past" darajalarga taqsimlandi. Unga ko'ra, xavf-xatari 8-tasi "Yuqori" bo'lgan funksiyalar, "13- tasi O'rta", "12- tasi Past" funksiyalar aniqlandi.

4. Jamiyatda manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish bo'yicha quyidagi ishlar amalga oshirilmoqda. "Sharg'unko'mir" aksiyadorlik jamiyatining 2024-yil 14-noyabrdagi 288-son buyruq bilan tasdiqlangan "Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish to'g'risidagi Nizom" talablari asosida korrupsiogen omillarni barvaqt oldini olish, ularni bartaraf qilish maqsadida jamiyatning barcha xodimlari tomonidan yiliga bir marta manfaatlar to'qnashuvini oshkor qilish shakli (deklarasiya) to'ldirilishi belgilab qo'yilgan. Shu maqsadda "Sharg'unko'mir" aksiyadorlik jamiyatining jami 606 ta ishchi-xodimi 2026-yil uchun manfaatlar to'qnashuvini oshkor qilish shakli (deklarasiya) to'ldirishdi.

To'ldirilgan deklarasiyalar Odob-axloq komissiyasi tomonidan tahlil qilinganda 25 ta ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi mavjud ekanligi aniqlandi.

Aniqlangan ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi mavjud bo'lgan xodimlarga jamiyatning "Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati", "Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish to'g'risidagi nizom", "Odob-axloq kodeksi" hamda Korrupsiyaga qarshi kurashishda ko'maklashgan xodimlarni taqdirlash to'g'risidagi Nizom bo'yicha qo'yshimcha o'quv seminari tashkil etildi.

5. "Sharg'unko'mir" aksiyadorlik jamiyati barcha tuzilgan shartnomalar, to'g'ridan-to'g'ri, mehnat shartnomalarida korrupsiyaga qarshi bandlar qo'shilishi amalga qo'llandi.

6. "Sharg'unko'mir" aksiyadorlik jamiyati tomonidan 2026-yilning 31-mart holatiga jami 41 846 mln. so'mlik jami 155 ta shartnoma rasmiylashtirilgan. Shulardan 111 tasi xt-xarid.uz (электрон дўкон), 7 tasi xt-xarid.uz (танлов), 1 tasi xt-xarid.uz (тўғридан тўғри), 2 tasi xarid.uz (электрон дўкон), 10 tasi xarid.uz (миллий дўкон), 6 tasi cooperation.uz (электрон дўкон), 8 tasi xarid.uzex.uz (таклиф сўрови), 7 tasi xarid.uzex.uz (ягона етказиб берувчи) va 1 tasi xarid.uzex.uz (тўғридан тўғри) shartnomalar imzolandi.

Mazkur tuzilayotgan shartnomalarni kontragentlarni o'rganish orqali uning ishonchliligi, moliyaviy barqarorligi, davlat amaldorlari bilan aloqadorligi, manfaatlar to'qnashuvi mavjudligini tekshirish orqali yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavflarni kamaytirish bo'yicha ishlar 96 ta shartnomada amalga oshirildi.

Hisobot davrida davlat xaridlari jarayonida soxta xujjatlarni taqdim etgan yoki ayni bitta lotda ishtirok etgan afillangan shaxslar hamda manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi ma'lumotlar aniqlanmadi.

7. "Sharg'unko'mir" aksiyadorlik jamiyati xisobot davrida jamiyat ishchi xodimlariga "Sovg'alar berish va olish, biznes-tadbirlarni tashkil etish, vakillik xarajatlarini amalga oshirish bo'yicha siyosati"ga amal qilingan xolda, kasb bayramlari, 8-mart xalqaro xotin-qizlar kuni, yubiley yoshlari (tug'ilgan kun)da sovg'alar taqdim etilgan.

Pul mukofotlari va ustamalar tayinlash jamiyatning Jamoa shartnomasi hamda jamiyatning qabul qilingan Nizomlariga asosan amalga oshirilib kelinmoqda.

Fuqarolarni ishga olish va kadrlarni tanlash "Sharg'unko'mir" AJning 2026 yil 5-yanvardagi 2x-sonli buyrug'i "Sharg'unko'mir" AJga kadrlarni tanlash va ishga qabul qilish tartibiga asosan amalga oshirilmoqda.

Jamiyatning korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati talablari asosida xodimlarning mehnat shartnomalariga korrupsiyaga qarshi qo'shimcha ogohlantirish bandlari kiritilgan.

Ichki audit asosida Jamiyat xodimlariga tayinlanayotgan mukofot pullari ustamalar o'rganilganda jamiyatning ichki nizom tartib tamoillari asosida amalga oshirilib kelingan va korrupsiogen omil aniqlanmagan. Korxonadagi xaridlar jarayoni amaldagi qonunchilik xujjatlari hamda "Sharg'unko'mir" aksiyadorlik

jamiyatining xaridlarni amalga oshirish Nizomi asosida amalga oshirilib kelinmoqda. Korrupsiogen omil aniqlanmadi.

8. "Sharg'unko'mir"aksiyadorlik jamiyatida hisobot davrida aloqa kanallari orqali korrupsion xolatlar bo'yicha murojaatlar kelib tushmagan.

9."Sharg'unko'mir"aksiyadorlik jamiyatida xisobot davrida korrupsiogen qoidabuzarliklar aniqlanmadi.

10."Sharg'unko'mir"aksiyadorlik jamiyatida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha tasdiqlangan "Yo'l xaritasi" va o'quv dasturiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Davlat xaridlari tizimida raqobat tizimini ta'minlash bo'yicha navbatdagi chora-tadbirlari 259-son Farmoni, xaridlarni amalga oshirish jarayonida kontragentlarni tekshirish bo'yicha 23-fevral 14-bayon va "Sharg'unko'mir"AJning 2024 yil 18-noyabrdagi №288 son buyrug'i asosida qabul qilingan "Korrupsiyaga qarshi kurashish Siyosati". "Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish to'g'risidagi Nizom", "Odob-axloq Kodeksi" hamda "Sharg'unko'mir"Ajning korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirish to'g'risidagi Nizom" bo'yicha 2026 yil 17-mart 20-son bayon bilan ro'yxatga olingan o'quv seminarlari o'tkazildi.

**Komplyens va korrupsiyaga qarshi
kurash xizmati boshlig'i**



Sh.O.Xalilova